# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi
*(2021- yil yanvar-may)*




Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 28,5 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 117,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (70,5 %) ni tashkil etdi.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 15,5 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 0,4 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 5,4 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 17,8 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,1 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,5 % ni tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish 11,1 % ga, sheben qazib olish 16,9 % ga oshgan bo‘lsa, tabiiy gaz 0,5 % ga, hamda gazli kondensat 3,2 % ga pasaygan.



| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-may | 2021-yil yanvar-may | Farqi *+/-* |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 247,9 | 275,4 | 27,5 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 14 897,0 | 14 824,1 | -72,9 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 327,8 | 317,2 | -10,6 |
| **Chaqiq tosh,** *ming t.* | 169,5 | 198,1 | 28,6 |

## Ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,1 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 70,5 % ini tashkil etdi.






## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, *% da*

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 12,8 % ni (2020-yilning yanvar-may oylarida 6,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali 21,0 % (25,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali 30,0 % (26,8 %) va quyi texnologiyali 36,2 % (41,3 %) ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-may,** *% da*




**2021-yil yanvar-may,** *% da*




- yuqori texnologiyali
- o‘rta-yuqori texnologiyali
- quyi texnologiyali
- o‘rta-quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 34,7 % (2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi 12,7 % (2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 172,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 9,9 % (2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 19,5 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 7,9 % (2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,7 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati




2021-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 57,6 ming tn. prokatdan keyin kalavalarga o’ralgan chiviqlar (2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 11,0 marttaga ko’paygan), 9,4 tn. pishloq va tvorog (6,4 m.k.), 629,0 ming dona trikotaj yoki to’qilgan ustki kiyim (2,6 m.k.), 18,5 ming tn. paxtadan yigirlangan ip (2,6 m.k.) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur‘atlari kuzatildi.

## Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-may | 2021-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oltin gugurt,** *tonna* | 116 841,0 | 108 170,0 | -8 671,0 |
| **Karobkalar, gofrali qog‘oz yoki kartondan idishlar,** *tonna* | 4 909,0 | 879,2 | -4 029,8 |
| **Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari,** *tonna* | 7 742,9 | 5 645,6 | -2 097,3 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 28,0 | 26,9 | -1,1 |
| **Sovutgich va muzlatgichlar,** *dona.* | 125 456,0 | 236 191,0 | -110 735,0 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,8 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,2 % ini) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi  84,5 % ni tashkil qildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-may | 2021-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 149,5 | 127,3 | -22,2 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 6 994,1 | 7 023,0 | 28,9 |
| **Elektroenergiya uzatish bo’yicha xizmatlar,** *ming so ‘m.* | 518 343,0 | 327 971,0 | 190 372,0 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,5 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

2020- yil, *% da*




2021- yil, *% da*




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar-may | 2021-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 30,2 | 35,4 | -5,2 |
| **(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy,** *tonna* | 180,8 | 189,2 | 8,4 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash,** *mlrd. so‘m* | 68,5 | 77,1 | 8,6 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 4,6 % ga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 12,7 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 17,4 % ga oshish kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11,0 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 20,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 38,6 % ni tashkil etdi.




2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 63,8 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,1 % (2020- yil yanvar-may oylarining mos davriga nisbatan 19,4 % ga o'sgan) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 27,3 % ni shuningdek, Uchtepa tumani 10,3 % ni, Olmazor tumani 9,6 % ni, Sirg'ali tumani 9,3 % ni, Bektemir tumani 8,8 % ni hamda Chilonzor tumani 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirobod (138,1 %), Uchtepa (122,0 %), Yashnobod (165,2 %) hamda Bektemir tumanlarida (105,0 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
*(2021-yilning yanvar-may oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, *% da* | O‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **10 977,6** | **100,0** | **120,5** |
| **Uchtepa** | 1 132,4 | 10,3 | 122,0 |
| **Bektemir** | 964,6 | 8,8 | 116,3 |
| **Yunusobod** | 421,5 | 3,8 | 86,9 |
| **Mirzo Ulug‘bek** | 551,1 | 5,0 | 99,1 |
| **Mirobod** | 811,9 | 7,4 | 138,1 |
| **Shayxontohur** | 269,2 | 2,5 | 84,1 |
| **Olmazor** | 1 050,5 | 9,6 | 109,7 |
| **Sirg‘ali** | 1 023,9 | 9,3 | 114,6 |
| **Yakkasaroy** | 588,1 | 5,4 | 115,6 |
| **Yashnobod** | 2 997,1 | 27,3 | 165,2 |
| **Yangihayot** | 316,8 | 2,9 | 113,1 |
| **Chilonzor** | 850,5 | 7,7 | 89,7 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to‘g‘ri kelib, 23,4 %, shuningdek, Sirg‘ali 11,4 % ni, Yashnobod tumani 12,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Yakkasaroy (138,5 %), Yangihayot (137,6 %), Bektemir (124,6 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, *% da* | O‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **3 415,5** | **100,0** | **101,4** |
| **Uchtepa** | 248,6 | 7,3 | 92,4 |
| **Bektemir** | 800,4 | 23,4 | 124,6 |
| **Yunusobod** | 224,6 | 6,6 | 99,5 |
| **Mirzo Ulug‘bek** | 112,0 | 3,3 | 71,4 |
| **Mirobod** | 104,4 | 3,1 | 86,6 |
| **Shayxontohur** | 83,9 | 2,5 | 74,6 |
| **Olmazor** | 465,9 | 13,6 | 109,0 |
| **Sirg‘ali** | 388,3 | 11,4 | 103,5 |
| **Yakkasaroy** | 176,3 | 5,2 | 138,5 |
| **Yashnobod** | 420,0 | 12,3 | 88,0 |
| **Yangihayot** | 128,9 | 3,8 | 137,6 |
| **Chilonzor** | 262,1 | 7,7 | 77,0 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 30,6 % ni, shuningdek, Mirobod 10,1 % ni, Uchtepa 12,6 % ni, Sirg’ali 8,4 % ni, Olmazor 8,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Yashnobod (223,1 %), Mirobod (151,4 %), Uchtepa (134,4 %), Sirg’ali (124,7 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
*(2021-yilning yanvar-may oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, *% da* | O‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **7 002,4** | **100,0** | **102,3** |
| **Uchtepa** | 883,8 | 12,6 | 134,4 |
| **Bektemir** | 163,8 | 2,3 | 88,3 |
| **Yunusobod** | 164,1 | 2,3 | 70,9 |
| **Mirzo Ulug‘bek** | 439,0 | 6,3 | 110,1 |
| **Mirobod** | 707,5 | 10,1 | 151,4 |
| **Shayxontohur** | 150,3 | 2,1 | 86,2 |
| **Olmazor** | 584,7 | 8,3 | 110,5 |
| **Sirg‘ali** | 585,9 | 8,4 | 124,7 |
| **Yakkasaroy** | 411,7 | 5,9 | 108,1 |
| **Yashnobod** | 2 139,7 | 30,6 | 223,1 |
| **Yangihayot** | 187,9 | 2,7 | 88,3 |
| **Chilonzor** | 584,1 | 8,3 | 96,5 |

## Toshkent shahri hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

| | 2021- yil yanvar-may *mlrd. so'm* | Fizik hajm indeksi, *% da* |
|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **28 453,6** | **117,9** |
| **Uchtepa** | 2 036,6 | 110,6 |
| **Bektemir** | 1 846,5 | 102,3 |
| **Yunusobod** | 1 394,0 | 78,5 |
| **Mirzo Ulug'bek** | 1 854,1 | 98,2 |
| **Mirobod** | 2 399,7 | 101,0 |
| **Shayxontohur** | 1 878,6 | 112,7 |
| **Olmazor** | 1 729,3 | 113,4 |
| **Sirg'ali** | 2 315,4 | 115,0 |
| **Yakkasaroy** | 1 701,7 | 104,5 |
| **Yashnobod** | 9 039,8 | 113,0 |
| **Yangihayot** | 389,5 | 102,9 |
| **Chilonzor** | 1 868,4 | 113,6 |

## Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida kamayish kuzatilmadi, lekin Yunusobod (2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan 78,5 %), Mirzo Ulug’bek (98,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligini izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Yashnobod (165,2 %), Bektemir (116,3 %), Mirobod (138,1 %) hamda Uchtepa tumanlarida (122,0 %) qayd etildi.

## Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, *% da*




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 31,8 %), Mirobod (8,4 %), Sirg‘ali (8,1 %), Uchtepa (7,2 %) hamda Shayxontohur (6,6 %) tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangihayot (1,4 %) hamda Yunusobod (5,3 %) tumanlarga to‘g‘ri kelmoqda.

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2021-yil yanvar-may oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8,5 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 75,1 %), Olmazor tumanida (71,3 %), Yangihayot (59,2 %), Sirg‘ali tumanida (55,1 %), Yunusobod (43,3 %), Uchtepa (34,2 %), Yakkasaroy (32,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnobod (14,1 %), Mirobod (17,2 %) va Shayxontohur (29,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- iyun holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,3 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 13,4 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,7 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (8,9 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug’bek tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda*** | **Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, birlikda**




2021-yilning yanvar-may oylarida shaharda 1 012 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 120 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 11,9 %) Olmazor tumanida, 113 tasi (11,2 %) Chilonzor tumanida, 103 tasi (10,2 %) Yunusobod tumanida, 103 tasi (10,2 %) Shayxontohur tumanida, 101 tasi (10,0 %) Uchtepa tumanida, hamda 91 tasi (9,0 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari
*(2021- yil 1-iyun holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 185 ta), Chilonzor (2 007 ta), Uchtepa (1 910 ta), Yunusobod (1 778 ta) hamda Shayxontohur (1 456 ta) tumanlarida qayd etildi.







2021-yilning 1-iyun holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (524 ta), Yangihayot (557 ta), Mirobod (954 ta), Yakkasaroy (1 250 ta), Yashnobod (1 318 ta), Mirzo Ulug‘bek (1 352 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo‘limi**
*Tel.: (71) 203-88-16*